

MIRZO BOBUR FARZANDLARI

Azamjanova Ziyodaxon Azamjon qizi

Andijon Davlat Universiteti tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16560328>

*Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

She'riyat dunyosiga bir bog' misolida nazar solsak, uning qanchalar maftunkor va xilma xilligiga amin bo'lamiz. Har bir gulning takrorlanmas go'zalligi va xushbo'y atri bo'ladi. Go'zallik timsollarining barchasini quchib, muattar hidlaridan orom olging keladi kishi. Biroq gullar qanchalar beqiyos bo'lmasin, ularning ichida dilingni mast etib, o'ziga qayta-qayta chorlovchi benaziri bo'ladi. She'riyat gulshanining gultojlar - Lutfiy, Navoiy, Boburdir. Bu ulug' siymolarimizni 7 yoshdan 70 yoshgacha barcha biladi, sevib mutolaa qiladi. Ko'p qirralilik xususiyati bilan alohida ajralib turtuvchi Bobur Mirzo shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi sifatida dong taratgan. Bobur bu sohalarda ko'p va xo'b ijod etgan, faoliyat yuritgan va dunyo e'tirofiga sazavor bo'lgan. Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erskin shunday iliq fikrlar bildirganki, uni qog'ozga tushurmaslik, ma'rifatga jaholat bilan qarashdek nazdimizda.

“Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Boburning olam ahlini lol etgan ijodi haqida soatlab gaprish, tonlab kitoblar bitish mumkin. Bobur butun bir xalqqa munosib “ota” bo'ldi. Farzandlarini qanchalar suyib, erkalasa, elining farovon yashashi uchun shu qadar kuyib, yondi. Boburning dono harakatlari, o'ychan va bilimli boqishlari farzandlarida ham aks etdi. Otasi singari mehribon, xalqini suyuvchi, ma'rifatli va zamonasining yetuk shaxslaribo'lib yetishgan Bobur farzandlari ham, padari singari o'z davrining nomdor vakillari qatorida muhim o'rin tutdi. Boburning qizi Gulbadan Begim (1522, Kobul-1603, Dexli)- markaziy Osiyodan o'rta asrlarda yetishib chiqqan yagona ayol tarixchi.

Boshqa farzandlari: Fahr an-Nisa-begim (1502-1502), Humoyun (1508-1556), Mixr Jahon-begim, Ishand ad-Daulat-begim, Barbul-mirzo (1518-1521), Faruk -mirzo (1526-1527), Gul Barg-begim, Masuma Sulton-begim, Kamron-mirzo (1509-1557), Gul Izar-begim, Muhammad Askari-mirzo (1517-1554), Sulton Ahmad-mirzo (1517-1525), Shohruh-mirzo (1522-1527), Gul Rang-begim (1511/15-1534 yildan keyin), Gulchehra-begim (1515/17-1557), Abu Nosir Muhammad Hindol-mirzo (1519-1551), Alur-mirzo (1524-1529).

Bobur Mirzoning farzandlariga bo'lgan mehr va e'tiborini birgina Humoyun mirzoning bedavo dard bilan og'riganida xudodan “jon kerak bo'sa, menikini ol”-deya madad so'ragani, oh chekkanini eslashimiz mumkin.

Humoyun. 1530- yil Humoyunning otasi Boburning Hindistondagi mulklariga ega bo'lgan. Sekin-asta Gujarot, Rajpu-tan, Malvani o'z davltiga qo'shib olgan. Lekin o'sib borayotgan ichki nizolar va ukalari Mirzo Komron, Mirzo Feruz, Aksariy Mirzo va Hindol Mirzolarning mustaqillikka intilishlari davlatni zaiflashtirgan.....

Humoyun Hindistonda bir necha ma'muriy islohotlar o'tkazgan. Uning davrida Mir

Sayid Ali boshchiligida miniatyura maktabi yuzaga kelgan. Humoyun fors va turk tillarda she'rlar yozgan. Akbar tomonidan Dehli shahrida Humoyun maqbarasi qurilgan. Gulbadan Begim Bobur va akasi Humoyun haqida "Humoyunnoma" asarini yozgan.

Ma'suma Sulton Begim. Uning onasining ismi ham Ma'suma Sulton Begim bo'lib, chaqaloqligidayoq onasi olamdan o'tgan va chaqaloqni onasining ismi bilan ataganlar. Bu qiz Hirot shohi Mirzo Husayn Boyqaroning nevarasi, Mirzo Badiuzzamonning o'g'li Muhammad Zamon Mirzoga turmushga chiqqan

Gulbadan Begim. 1522-yilda Kobul yaqinida tug'ilgan. 1539-yilda Gulbadan Begimni Humoyunshoh saroyidagi amaldorlardan bo'lgan Xo'ja Xizirxonga turmushga uzatilgan va undan bir o'g'il farzand ko'rib, unga Saodatyor deb ism qo'yilgan.

Boburshoh va boburiy shahzodalarning hayot yo'li, ularning beqiyos bunyodkorlik ishlari, davlatni boshqarishdagi islohotlar, qolaversa, inson sifatidagi qiyofasi uning vatandoshlari qalbida, albatta, katta qiziqish uyg'otadi.

Hindistondan buyuk mamlakat tarixida Boburshoh va uning avlodlari faoliyati salmoqli o'rin egallaydi. Bu mamlakatda boburiylar saltanati o'rnatilgandan buyon 480 yilga yaqin vaqt o'tgan bo'lsa ham, tarixchilar va mahalliy xalq ularning nomlarini alohida ehtirom bilan tilga oladi.

Boburiylar sulolasi vakillari haqida nafaqat sharq, balki g'arb mamlakatlarida, shu jumladan Buyuk Britaniyada o'nlab ilmiy-tarixiy asarlar yaratilgan. Bu asarlarning ko'plari boburiy shahzodalarning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bo'lib, asar mualliflarining aksariyati o'sha davrda bo'lib o'tgan voqealarda o'zlari ishtirok etganlar. Bu asarlar Hindistonda uch yarim asrga yaqin muddat davomida hukmronlik qilgan boburiylar sulolasi haqida ma'lumot beradi.

Bobur va uning avlodlarining kelajak ravnaqi yo'ida qo'shgan hissalar haqida gapirar ekanmiz, uni hisoblash uchun hech bir o'lchov birligi va tarozi topilmasligiga amin bo'lamiz. Kelajak o'tmishdan bunyod etilganidek, ota-bobolarining kim ekanligini bilmagan, o'rganmagan va o'rgatmagan inson o'zligini anglab yetmagan manqurtdir. Ajdodlarimiz faqatgina tushlarida orzu qilgan, bugungi sharoitlarda ko'p narsaning ilojini topsa bo'ladi. Biz-u sizdan biroz qunt va harakat talab etiladi xolos.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. G'ofurjon Sotimov : "Boburiyzodalar" - T.: "Ma'naviyat" n, 2003y
2. Bobur Xalqaro Fondi: "Zahiriddin Muhammad Bobur" - T.: "Sharq" n, 2008y
3. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi : "Zahiriddin Muhammad Bobur" - T.: "Fan" n, 1994y